



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Bobomurodova Iroda**

*Termiz davlat i Pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va  
pedagogikasi yo'nalishi 2- kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatidan ta'lim faoliyatiga o'tish jarayonlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, "Ilk qadam", faoliyat turlari, o'yin, ta'lim, nutq, mehnat.

### Asosiy qism

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019 - yil 13- maydagi 391- sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi ijrosini ta'minlash maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuritilayotgan ish hujjatlarini tartibga solish xodimlarning ta'lim tarbiya jarayonidagi mas'uliyatini oshirish maqsadida. Faoliyat anglangan maqsad bilan boshqariladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) harakat rivojlanishi. Faoliyat voqellikga nisbatan faol munosabat bildirishning shunday bir shaklidirki u orqali kishi bilan uni qurshab turgan olam o'rtasida real bog'lanish hosil qilinadi. Odam faoliyat orqali tabiatga narsalarga boshqa kishilarga ta'sir ko'rsatadi.

Boshqacha so'z bilan aytganda faoliyatda kishining shaxsi ifodalanadi va anglash chog'ida faoliyat uning shaxsini shakllantiradi. Kishida xilma xil faoliyati turlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi murakkab hamda uzoq davom etadigan jarayondir. Bolalarning faolligi faqat asta sekinlik bilan rivojlanish jarayonida tarbiya va ta'lim ta'siri ortasiga ongli ravishda maqsadga yo'naltirilgan faoliyat shaklini kasb etadi.

Faoliyatning shakllanishi bilan birgalikdagi kommunikativ xulq atvor bolaga o'z ehtiyoqlari va istaklarini qondirish ijtimoiy talablarni va axborotni o'zlashtirishga uchun yordam beradigan asosiy vosita rivojlana boshlaydi.

Faoliyat turlari 3 turga bo'linadi va hozirgi kunga kelib bu faoliyat turiga yana bir faoliyat turi qo'shildi. Bular:

1. O'yin






2. Ta'lim
3. Mehnat
4. Nutq kabilarga bo'linadi.

Faoliyatning oddiy shakllaridan biri o'yin hisoblanadi, lekin u tobora takomillashib sodda harakatlardan keyinchalik sujetli rolli o'yinlarga hatto sportgacha murakkablashib boradi, atrof muhitni aks ettirishda ishtirok eta boshlaydi. O'yin faoliyatida bola ijtimoiy voqelikni taqlid ro'l orqali ijro etishga harakat qilmadi va shu yo'sinda atrof muhit to'g'irisidagi ijtimoiy tushunishdagi shaxslararo munosabatlarni o'zlashtira boradi. Ijtimoiy turmushdagi u yoki bu hodisani ro'l orqali ijro qiladi

Dastlabki o'yin aynan kattalar xatti-harakatlarini takrorlash ularga taqlid qilish bilan tavsiflanadi. O'yin bola uchun vaqt o'tgazish uni mashg'ul qilish funksiyasini bajarsa keyinchalik ijtimoiy tarixiy taraqqiyot namunalarini ifodalash darajasiga o'tadi. Bola tug'ulganda to maktab talimigacha davrida uning uchun o'yin faoliyati yetakchi faoliyat ro'lini bajaradi.

Ta'lim ham jarayon ham faoliyat sifatida insonning hayotida muayyan davr uchun yetakchi faoliyat sifatida gavdalanishi mumkin. Talim o'quv faoliyati aqliy faoliyat, bilish faoliyati turkisi vazifasini o'taydi, chunki har qaysi faoliyatning shakli aqliy mehnat tufayli amalga oshadi. Ta'limning boshqa faoliyat turlaridan farqi uning maqsulining o'zing xosligi barcha bosqichlarga ongli yondashuvda va munosabatda bo'lishidir. Ta'lim tarbiya bilan uyg'unlashgan holda nomoyon bo'ladi. Sub'ektga obektiv ta'sir o'tkazish tufayli bilimlar egallanadi, muayyan shaxsini fazilatlar tarkib topadi. Ta'limning muhim funksiyasi shuki turli yoshdagi odamlarni kasb tanlashga yo'naltiradi, kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirishga mutaxassis sifatida shakllanishiga muhim ta'sir o'tkazadi. Mustaqil fikrlash psixologik imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish barkamollikni egallash borasida ijtimoiy hayotning turli jabhalarida ta'lim yetakchi faoliyat tariqasida muhim ro'l o'ynaydi. Mehnat faoliyati yashash ehtiyojni qondirish kelajak uchun mo'l ko'pchilik vujudga keltirish yaratilgan mahsulotlarni saqlash asrash me'ros sifatida qondirish funksiyalarini bajaradi. Mehnat faoliyati kishida lazzatlanish hissini shakllantiradi, butun imkoniyatni ishga tushirishga moddiy ma'naviy negiz yaratadi. Natijada qobiliyatli, salohiyatli mutaxassis, mahoratli navator kasb egasi bosqichlariga erishishiga shaxsni undaydi. Mehnat turlari maishiy ishlab chiqarish turlariga ajratilgan holda imkoniyatga, layoqatga, obilyatga, salohiyatga qarab taqsimlanadi. Nutq faoliyati bolalarning bu faoliyat turi har bir bolaning so'zlarni to'g'iri talaffuz qilishi o'zlarining so'z boyliklarini kengaytirish. Bola 1,5 yoshdan 3





yoshgacha bo‘lgan bolalarda nutqni tushunish tez rivojlanadi. Lug‘at boyligi keskin ortadi, so‘z tarkibi takomillashadi. Shu boisdan ham Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida til va nutq faoliyati ham tashkil etilgan. Bunda bolalar tovush birikmalarini so‘ngra esa oddiy ibora kichik she‘rlarni oson takrorlaydilar.

Xulosa qilib aytganda bolalarning rivojlanishi uchun har bir faoliyat turlarining o‘z o‘rni bor. Bolalarning asosiy faoliyat turi bu o‘yin faoliyati hisoblanadi. Bu faoliyati turi bola uchun vaqt o‘tkazish uni mashg‘ul qilish funksiyasini bajarsa keyinchalik ijtimoiy tarixiy taraqqiy etishini ifodalash darajasiga o‘tadi. Bolalarni o‘yin faoliyatidan ta‘lim faoliyatga o‘tish jarayoni asta sekin rivojlanib boradi. Bu faoliyat bolaning o‘zining ta‘lim faoliyatga intilishi o‘zini o‘zi ongli anglash orqali sodir bo‘ladigan faoliyat hisoblanadi. Yana bir nuqtayi nazar bilan qaraydigan bo‘lsak bolalarga ta‘lim berish jarayonida o‘yin faoliyati orqali ham turli metodlar bilan ta‘lim faoliyatga qiziqtirish mumkin. Bunda pedagoglarning mahorati ham katta ro‘l o‘ynaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Norbosheva M.A - "Maktabgacha ta‘limda psixodiagnostika" T- 2015yil
2. Norbosheva M.A - "Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi" T-2020

